

Nargizaxon Toshpo'latova Mamarizayevna

F.V.P.X. Q.T.V.M.O.I. o'qituvchisi

UYG'ONISH DAVRI MUTAFAKKIRLARINING TA'LIM – TARBIYAGA QARASHLARINING AHAMIYATI

Kalit so'zlar: Mutafakkir, ta'lim, tarbiya, fikr, maqsad. o'qituvchi o'quvchi, foydalanmoq, buyuk, pedagogika, fan, rivojlanmoq, didaktika, olim. shaxs

Klyucheviye slova: Mislitel, obrazovaniye, vospitaniye, misl, idea, tsel, uchitel, uchenik, polzovatsya, velikiy, pedagogika, razvivatsya, didaktika, uchyoniy, litso

Key Words: Thinker, education, upbringing, idea, aim, a teacher, a pupil, to use, great, pedagogical, subject, to development, didactics, scientific, person.

Buyuk ajdodlarimiz ta'lim – tarbiya borasida nazariy hamda amaliy jihatni birga bog'lab yondoshganlar. Abu Nasr Forobiyning insonparvarlik, inson shaxsining kamol toptirishning yo'l yo'riqlari ilm ma'rifatga erishuvning usullari haqidagi fikrlari ijtimoiy muammolarni yechish masalalari bilan uyg'unlashgan. Bu qator muammolarni insoniylik, yetuk insoniy xislatlarni yaratish nuqtai nazardan hal qilishga qaratiladi. Alloma o'z asarlarida didaktika ta'limning asoslarini etika bilan bog'lagan hamda pedagogik qarashlarini falsafiy fikrlar bilan hamohang tarzda tahlil etadi. Insonda aqliy bilim, ma'naviylik salohiyati ta'lim olishga qiziqish, intilish, tashqi muhit boshqa insonlar bilan muloqotda vujudga keladi. Inson o'z faoliyati davomida ularni egallab, erishadi. Ilm tufayligina inson oliy maqsadga erishadi. Ziyraklik insondagi tez fikrlilik, o'ylagan narsasini darrov topa olish qobiliyatidir. Xalq aqlli kishilarni dono deb ataydilar. Chunki ular insonlarga kerakli narsalarni o'ylab topadilar. Shunday ekan ularni yer yuzidagi eng yaxshi kishilar desak bo'ladi. Agar shunga munosib bo'lmas ekan, ular nomigagina donodirlar. Insonning oliy maqsadga erishishida ilmning o'rnini beqiyos ahamiyatga egadir. Inson o'zining ongi, aqli sezish a'zolari orqali olamni har tomonlama o'rganish qobiliyatiga egadir. Aql-

zakovatni ishlatib, fikrlab so'zlash har bir insonni kamolotga yetkazadi. Insoniylik mohiyati haqiqiy baxt-saodatga erishuv ekan.

Nazariy bilimlarni ustozlar hikmatlar o'rgatadi. Inson o'ziga hos bo'lgan martaba eng yuksak kamolotga erishish uchun harakat qilmog'i lozim. Insonga hos buyuk kamolot eng oliy, yetuk baxt-saodatdir. Inson masalani muhokama va mulohazani tezda, to'gri tushuna oladigan uning ma'nosini ang'lay oladigan, so'zlovchining maqsadi va aytilgan fikrini chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin. Xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan eshitgan sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab oladigan bo'lsin. Alloma insonni ta'lim- tarbiya olishga da'vat etar ekan, avvalo uning ma'naviy dunyosi, xulq atvori go'zal bo'lmog'i lozim. Buyuk alloma shogird bilan ustozning o'zaro munosabatlarini tasvirlar ekan shunday deydi: Odamlarga bilim o'rgatishga bel bog'lagan muallim avvalo o'zi bilimdon, qat'iyatli, xushmuomala bo'lishi darkor. Ya'ni muomalasi haddan ziyod qattiqqo'llikdan, o'ta yuvoshlikdan xoli bo'lmog'i kerak. Haddan ortiqcha qattiqqo'llik talabani o'z murabbiysiga qarshi qo'ysa, haddan ortiqcha yuvoshlik, yumshoqlik esa uni hurmatdan mahrum etadi. Allomaning ko'plab ilm tolibi shogirdlari bo'lgani sababli, o'sha davridayoq tan olinib, "Muallimi Soniy", "Muallimi avval" nomiga sazovor bo'lgan.

Abu Nasr Farobiyning tarbiyaga oid fikrlaridan namunalar.

Forobiyning tarbiya sohasidagi inson shaxsini kamol toptirishning yo'l-yo'riqlari, fikrlari ijtimoiy jihatdan uyg'unlashgan. Uning fikricha, insonning axloqiy sifatleri, ma'naviyati boshqa insonlar bilan muloqotda shakllanadi hamda vujudga keladi. Axloqiy fikrlarni shakllantirish esa asosan tarbiya, tarbiyachi va muallimning vazifasidir. Uning ta'kidlashicha, tarbiyalash 2 hil usulda amalgam oshadi. Biri ixtiyoriy biri esa majburiy. Agar tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy sifatleri, bilimli bo'lishi ham to'g'rilik, haqiqatni sevish, jasurlik, do'stlarga sadoqat kabi fazilatleri egallashga intilmasa, uni tarbiyachi, muallim bunday fazilatleri o'rgatishi zarur bo'ladi.

Quyidagi tug'ma xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan insongina axloqli bo'ladi. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarni sevadigan bo'lsin.

Abu Rayhon Beruniyning tarbiyaga oid qarashlari.

Alloma insonning axloqiy tushunchalari haqida shunday g'oyalarni ilgari surgan.

Tog'rilik, haqiqat, yaxshilik, yomonlik, rostgo'ylik, yolg'onchilik, ilmlilik, ilmsizlik, donolik, nodonlik, dushmanlik, do'stlik kabi ijobiy va salbiy hislatlarni insonlarning tabiati bilan bog'laydi. Alloma tarbiya turlarini quyidagi usulda ta'riflagan:

1. Oilada bola tarbiyasi
2. Aqliy tarbiya.
3. Axloqiy tarbiya
4. Jismoniy tarbiya;
5. Mehnat va insonparvarlik tarbiyasi.
6. Do'stlik va baynalminal tarbiya.

Insonning tilak va hohishlari mehnat tufayligina amalga oshiriladi. Insonning axloqini shakllantiradigan vosita deb mehnatni hisoblaydi. Mehnatsiz shon shavkatga erishgan kishi hurmatga loyiqmi? Yuqori martabaga mehnatsiz erishgan kishi rohat va farog'at soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi ammo ulug'lik libosidan mahrumdir. Mehnat insonni ulug'laydi hamda qalbida muruvvat hissini uyg'otadi. Mutafakkir bolalarni axloqiy barkamolligi va yomon fazilatlardan saqlanishi yo'lida tarbiya usullarini olg'a surgan. Ular quyidagicha:

1. Donishmand va olimlar xulqlaridan o'rnak olish. Yaxshi xulqni rivojlantirish, yomon odatlarni yo'q qiladi. Alloma ko'proq ota-onalarni farzandlariga o'rnak bo'lishga chorlaydi.

2. Pand-nasihati orqali bolalardagi ayrim nuqsonlarni anglatish zarur deb hisoblaydi hamda quyidagilarni bayon etadi: "Odamlar o'rgangan, odatlangan va ko'pchilikka ma'qul bo'lgan narsalarga qarshilik ko'rsatmasdan o'rganish."

Abu Rayhon Beruniyning ta'limga oid qarashlaridan namunalar:

Inson barhayot ekan, qandaydir ehtiyojlari saqlanadi. Uning o'qish , o'qitishdagi qarashlarining ko'lami har tomonlama juda qimmatliligi tahsinga loyiq. O'qitishda mantiqiy fikrlash, xulosalashga amal qilish kerakligini aytgan. O'qitishda o'quvchining qiziqishi intilishni hisobga olinishi muallim shogirdiga xushmuomala bo'lishini ta'kidlaydi.

Ta'limga erishishda nafs g'azabini yengish zarur. Ma'rifatda o'zni ustun qo'ymaslik muhim. Ilm o'zi kelmaydi, unga intilmog zarur.

Abu Ali ibn Sinonig ta'lim tarbiyaga oid qarashlaridan namunalar.

Allomaning pedagogik qarashlariga tabiiy ,ilmiy uslub asos qilib olingan. Abu Ali ibn Sino o'qituvchi ,ustozni mard,halol bolaga ta'lim berish usullarini yaxshi biladigan bo'lishlari kerakligini ta'kidlagan. Ta'lim asnosida u o'z ishida har hil shakl va qoidalardan foydalanmogi' zarur. Bolalar bilan o'tkaziladigan mashqlarning me'yori ular kuchi yetadigan darajada bo'lmog'i zarur deb uqtiradi.

Yosh bolani maktabda jamoa bilan o'qitishning foydasini quyidagicha ifodalagan:

Agar bolalar birga o'qisalar zerikmaydi,qiziqishi oshadi hamda bir-biridan qolmaslik uchun harakat musobaqalashish istagi rivojlanadi.Bularning bari o'qishning yaxshilanishiga olib keladi. Ular bir-birlari bilan to'planganlarida bir-birlarini hurmat qilishni boshlaydilar,do'stlashadilar.O'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-birlariga ko'maklashadilar hamda yaxshi odatlarni o'rganadilar.

Alloma o'qitish, ta'lim jarayoning quyidagi jarayonlarini tavsiya etgan:

-O'qitish asta-sekin osondan qiyinga , yaqindan uzoqqa, noma'lumdan ma'lum tomonlarga qarab olib borilishi;

-amalga oshiriladigan ta'lim ularning yoshiga mos bo'lishi shartligi .

O'qitish jamoa tarzda uyushtirilishi darkor;

O'qitish jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borilishi shart.

U asarlrda o'qituvchi,ning o'rniga alohida ahamiyat qaratgan va quyidagi talablarni qo'ygan.

Ustoz bolalar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak;

O'qitish jarayonida har-hil usullardan foydalana olishi darkor.

Ustoz o'z fikrini o'quvchiga bayon etishdan avval undan masalaning mohiyatiga o'zi tushunib olishi keyin uni aniq qisqa adabiy tilda tushuntirish.

Abu Ali ibn Sinonig tarbiyaga oid qarashlaridan namunalar.

Alloma pedagogik fikrlarini quyidagicha e'tirof etib, shular asnosida uslubiy amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan.

Alloma tarbiya turlarini quyidagilarda izohlagan:

1. Aqliy tarbiya. 2 Axloqiy tarbiya. 3. Jismoniy hamda sog'lomlashtirish tarbiyasi. 4 Nafosat tarbiyasi. 5 Mehnat tarbiyasi.

Uning asarlarida bolani sog'lom, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash g'oyalari ko'p uchraydi.

Bolalarning sog'lom o'sishi ular tarbiyasining poydevori , ma'naviy axloqi xislatlarning kamol topishini asosiy masalasi deb izohlagan.

Alloma jismoniy harakatlarning natijasi sog'likka eltadi degan. Albatta bunda jismoniy tarbiyaning o'rni muhimdir. Oila tarbiyasining muhim jihati shundan iboratki, yaxshi oilada tarbiyalanadigan bola sog'lom, serg'ayrat bo'lib kamol topadi.

Mutafakkir axloqiy tarbiya haqidagi fikrlarini targ'ib qilish natijasida axloq ilmini yanada rivojlantirdi. U axloqni 2 qismga ajratgan: Yaxshilik va yomonlik. Yaxshilikning bosh mezoni adolatdir. Chindan ham go'zal xulq atvor yaxshi odatlanishdan kelib chiqadi.

Insonning barcha ijobiy va salbiy xatti-harakatlarining sababini shaxsning o'zidan ya'ni uning tabiatidan izlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi aytib o'tilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki , ajdodlarimiz tafakkuri nechog'lik boyligiga amin bo'lamiz. Bizning allomalarimiz aql-zakovat sohibi ijtimoiy hayotning ko'p jiddiy muammolarini to'g'ri hal qilib, ana shular asosida ta'lim –tarbiyani rivojlantirishga nafaqat O'rta Osiyo xalqlarining, balki jahon xalqlarining tafakkuri xazinasiga bemiyl hissa qo'shganlar.